

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Xoliyorova Maftuna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti magistri

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatda erkinlik, demokratik qadriyatlar va farovon jamiyat barpo etishdagi o'rni tahlil qilinadi. Asosiy qonunning inson huquqlari, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy himoya va huquqiy davlatni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi.

***Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, ijtimoiy munosabat, e'tiqod erkinligi, davlat manfaatlarini mushtarakligi.*

ABSTRACT

This article analyzes the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in ensuring freedom, democratic values, and building a prosperous society in the country. The significance of the Basic Law in protecting human rights, economic reforms, social protection, and the formation of a state governed by the rule of law is explored from a scholarly perspective.

***Keywords:** Constitution, social relations, freedom of religion, general interests of the state.*

KIRISH

Konstitutsiya insoniyatning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish va tashkil etish borasida kashf etgan eng muhim yutuqlaridan biridir. Konstitutsiya – mustaqil davlatning siyosiy, huquqiy va ma'naviy poydevorini belgilab beruvchi asosiy hujjatdir. Konstitutsiya O'zbekiston jamiyatining evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat bo'lib, mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

Mustaqil O'zbekistonning ilk Konstitutsiyasi qabul qilinishida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning xizmatlari beqiyos. U bosh Qomus yaratilishi jarayonlariga bevosita rahbarlik qilib, ko'plab rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSH, GFR, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya, Hindiston, Pokiston, Misr kabi mamlakatlar asosiy qonunlarini shaxsan o'zi batafsil o'rganib chiqdi. Shu bilan birga, tarix va milliy qadriyatlarga ham alohida e'tibor qaratdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar qat'iy belgilab, inson huquqlarining ustuvorligini e'tirof etgani holda demokratik jamiyatni barpo etish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish va fuqarolarning farovon hayot kechirishini ta'minlashni maqsad qiladi.

So'nggi sakkiz yilda erishgan yutuqlarimizni, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo'shnilarimiz bilan oramizdagi 25 yillik "muzlar erigani" va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining konstitutsiyaviy himoyasini ta'minlash zarur edi. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun, ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo'yish talab etildi.

Konstitutsiya – dinamik, ya'ni doimiy harakatdagi, o'sish va rivojlanish jarayonidagi hujjatdir. U hayot jo'shqinligi va o'zgarishlarini o'zida aks etiradi. Shu o'rinda konstitutsiyaga kiritilgan so'ngi o'zgarishlar xususida, Harakatlar strategiyasi Yangi O'zbekistonning yangi konstitutsiyaviy qiyofasiga asos bo'lib xizmat qildi.

Zamonga mos harakat va o'zgarishlarni talab etayotgan bugungi shiddatli davr mezonlariga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo'lish – milliy davlatchilik an'analarimizga, xalqimiz manfaatlariga munosib ishdir. Dunyo mamlakatlarining rivojlanish amaliyoti ham konstitutsiyaviy qonunchilik izchil va muttasil takomillashib borishi zarurligini ko'rsatadi.¹ Shu boisdan ham Konstitutsiyaning yangi tahriri o'zida qator o'zgarishlar bilan boyitildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi va Qonunchilik palatasi Kengashining 2022-yil 20-may kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, uning tarkibi va vazifalari belgilandi. Komissiyaga aholining barcha qatlamlaridan Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni olish borasida vazifalar qo'yildi.

Asosiy qonunda "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan g'oya mustahkamlandi. Binobarin, ijtimoiy davlat – ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

"O'zbekiston – huquqiy davlat" degan g'oya Konstitutsiyamizda qat'iy mustahkamlab qo'yildi. Huquqiy davlat – insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g'oyasi va buyuk kashfiyotidir.

¹ <http://nhrc.uz/oz/news/m14205>

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ilk bor “fuqarolik jamiyati institutlari” iborasi kiritildi. Mahallalar va ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari qatorida qayd etildi.²

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot respondentlarning 88 foizi Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan qanday takliflar bildirilganidan xabardor ekanligini ko'rsatdi.

- birinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasini shakllantirish uchun fuqarolarimiz 60 mingdan ziyod taklif berishdi. Ularning taxminan har to'rttasidan bittasi loyihadan joy oldi;

- ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmoqlari orqali loyiha bilan 5 million aholi tanishib, 150 mingdan ortiq taklif va mulohazalar aytili.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida “Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni “Mening Konstitutsiyam” - deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”, deb ta'kidlagan edi.

Shu bilan birga, mehnat jamoalari, oliygohlar, mahalla faollari va ziyolilar bilan bo'lib o'tgan muhokamalarda ham yana qariyb 10 mingta qo'shimcha taklif kelib tushdi. Ayni paytda xalqaro-huquqiy hujjatlar va 190 dan ortiq davlatlar tajribasi o'rganildi, loyiha 6 turdagi ekspertizadan o'tkazildi.

Bularning hammasi yangilangan Konstitutsiyada jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini inobatga olinganidan dalolat beradi.

Shu muhim taklif va tashabbuslarning barchasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z aksini topdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muhim jihatlari hamda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini mushtarakligi asosida belgilangan normalarning mohiyati

I.Asosiy prinsiplar masalasi

Ta'kidlash lozimki, yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

² <http://nhrc.uz/oz/news/m14205>

O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.³

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlatdir. “Inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu g‘oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam bo‘ladi.

Davlat ushbu maqomiga, ya’ni ijtimoiy davlat ekanligiga monand ravishda konstitutsiyada bir qator muhim qoidalar belgilandi.

Birinchidan, Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, kommunal, transport, aloqa va boshqalar) ta’minlash hisobga olinishi alohida belgilandi.

Ikkinchidan, davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha majburiyatlar olmdi.

Uchinchidan, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo‘lgan huquqlari belgilandi va davlatning ta’limning barcha shakllariga g‘amxo‘rlik qilishi, inklyuziv ta’limni ta’minlashi, o‘qituvchining maqomiga oid normalar mustahkamlandi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga oid yangi qoidalar o‘rnatildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy davlat tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan yangi vazifa va vakolatlari belgilandi. Umuman olganda, yangilangan Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko‘paydi.

Yuqoridagilardan tashqari, qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘lishi shart va zarur. Bunga ko‘ra, inson va davlat o‘rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi.

Bunda konstitutsiyaning normalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash juda muhim hisoblanadi. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi va mamlakatning butun hududida qo‘llanilishi huquqiy davlatning muhim va asosiy shartlaridan biridir.

II. Inson huquq va erkinliklari hamda ularning kafolatiga oid o‘zgartirishlar

³ <https://lex.uz/docs/-6445145>

Inson huquq va erkinliklariga oid normalar 3 baravardan ortiqqa oshdi.

Qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olinadi.

Qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga o'z roziligisiz yuklatilishi mumkin emasligi qayd etildiki, ushbu norma odamlar hayotini yanada yengillashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi belgilandi.

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarning saqlab qolinishi hamda rivojlanishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi ta'kidlandi.

Shaxsiy huquq va erkinliklarga doir o'zgarishlar. O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlandi. Shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutini qo'llanish ko'lami yanada kengaydi.

Ilk bor shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi"), sukut saqlash huquqi berildi.

Har kimning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanish huquqiga ega ekanligi belgilandi.

Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi belgilandi.

Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarga doir o'zgarishlar

Insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlandi.

Davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko'paytirildi.

Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilandi.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rnini qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta'minlanishi kafolatlandi.

Aholi kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi, umuman, aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar 4 barobar ko'paytirildi.

Ma'lumot uchun: 2023-yilda "Kafolatlangan xizmatlar paketi" qayta ko'rib chiqilib, unda 20 turdagi kasalliklar bo'yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to'liq qamrab olindi.

Ko'p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo'yicha birlamchi bo'g'indagi bepul analiz turlari – 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar – 10 tadan 20 tagacha, dorilar – 64 tadan 90 taga oshirildi.

Ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshirildi.

Belgilangan normalarga ko'ra, **birinchidan**, davlat yangi bog'chalarni qurish, mavjudlarini ta'mirlash, shu jumladan davlat, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy bog'chalarni ko'paytirish, yangi bog'chalarni tashkil etishga imtiyozlar va subsidiyalar berish, pirovardida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni 100 foizga yetkazish choralari ko'radi;

ikkinchidan, umumiy o'rta ta'limning majburiylik belgilandi. Bu degani maktab yoshidagi har qanday bola albatta maktabda o'qishi shart hamda bunga to'sqinlik qilishga hech kimning, hatto ota-onalarning haqqi yo'q;

uchinchidan, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir, degan norma o'rnatilmoqda. Oldin faqatgina maktab ishlari davlat nazoratida edi, endilikda esa maktabgacha ta'lim ham davlat nazoratiga o'tkazilmoqda;

to'rtinchidan, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi, degan insonparvar norma bilan to'ldirilmoqda. Unga ko'ra, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi;

beshinchidan, davlat uzluksiz ta'lim tizimining, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi, deb mustahkamlandi.

Ta'limga oid qoidalar inson huquqlariga oid ko'plab xalqaro hujjatlarda hamda Germaniya, Portugaliya, Bolgariya, Urugvay kabi davlatlarning konstitutsiyalarida ham belgilab qo'yilgan.

Ma'lumot uchun, 2016 yilda 77 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023 yilga kelib ularning soni 200 dan oshdi. 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni kamida 50 taga yetkaziladi.

2017 yilgacha oliygohlarda o'qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, 2023-yilda bu boradagi ahvol butunlay o'zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko'payib, 40 mingga yetdi. Magistratura uchun esa 5 baravar ko'paydi.

Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilandi.

Nogironligi bor bolajonlarimizga o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko'zda tutilyapti.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirilyapti. Bu qoidalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o'qituvchilarning professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etilmoqda.

Konstitutsiyada har kimning mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi kafolatlandi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi belgilandiki, bular davlatimizda gender tengligi prinsiplari to'laqonli amal qilishiga olib kelishi tayin.

Konstitutsiyada bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, ahloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilandi.

Loyihada har kim ishsizlikda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga egaligi mustahkamlandi. Pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi belgilandi.

Inson, fuqarolarga berilgan huquq va erkinliklarni ta'minlashga doir o'zgarishlar:

Birinchi marotaba har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekanligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanihini ta'minlaydi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qoida bo'lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga egaligi ham tarixda ilk bor konstitutsiyaviy mustahkamlandi.

Konstitutsiyada har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega ekanligi mustahkamlandi.

III. Davlat hokimiyatini tashkil etish doir yangi normalar hamda amalga oshirilgan islohotlar

Fuqarolarimiz farovon yashashi, davlat barqaror rivojlanishi uchun samarali, ixcham va xalqchil davlat boshqaruvi joriy qilish hamda parlamentarizmni kuchaytirish sari dadil qadam qo‘yildi

Yangilangan Konstitutsiya xalqparvar davlat qurish maqsadida kuchli parlament, ixcham va mas’uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etishga qaratilgan.

Parlament palatalarining vakolatlari qayta ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaydi, ikki palata ishidagi takrorlanishlar bartaraf etilib, har birining mas’uliyat sohasi aniq belgilandi.

Ma’lumot uchun Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa, 14 tadan 18 taga ko‘paydi.

Hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish, Davlat budjeti ijrosiga oid masalalar Qonunchilik palatasining vakolatiga, hududlar manfaati va ularni rivojlantirish, yangi vazirliklar tashkil qilish to‘g‘risidagi farmonlarni tasdiqlash masalalari esa Senat vakolatlari doirasiga taalluqli ekanligi mustahkamlanishi shular jumlasidandir.

Senat oldiga qo‘yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish bo‘yicha normalar Konstitutsiyada ko‘zda tutildi. Xususan, senatorlar sonini hozirgi 100 nafardan 65 nafarga tushirish, bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirilishi belgilandi.

Parlamentning quyi palatasi tomonidan kiritilgan qonunlar Senatda 60 kun ichida ko‘rib chiqilishi, muddat o‘tib ketsa, ushbu qonun ma’qullangan deb hisoblanishi va imzolash uchun Prezidentga yuborish bo‘yicha norma kiritildi.

Yangi Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlar avval Senatda ko'rib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi, shuningdek, respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organi va respublika monopoliyaga qarshi organi rahbarlari Senat tomonidan saylanishi amaliyoti joriy etildi.

Maxsus xizmatlar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzod Senat bilan maslahatlashuvlardan so'ng Prezident tomonidan lavozimga tayinlanishi belgilandi.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari ham kuchaytirilib, parlament nazoratining muhim shakli bo'lgan parlament tekshiruv instituti Konstitutsiyada alohida mustahkamlab qo'yildi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashining barcha a'zolarini Senat tomonidan saylash tizimi kiritildi.

Ayrim oliy mansabdor shaxslarning lavozimga saylanish yoki tayinlanish muddatlari bo'yicha cheklovlar belgilandi.

Senat Raisi va Qonunchilik palatasi Spikeri, Oliy sud va Sudyalar oliy kengashi raislari, ularning o'rinbosarlari, Bosh prokuror, Markaziy saylov komissiyasi raisi, hokimlarni lavozimga ikki muddatdan ortiq saylash yoki tayinlashga cheklov kiritildi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalarini qayta saylanish huquqsiz 10 yilga saylash tartibi belgilandi.

Konstitutsiyaga advokatura institutiga bag'ishlangan va advokatlar faoliyatining kafolatlarini mustahkamlovchi alohida bob kiritildi. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasi bo'lishi va qonun bilan muhofaza qilinishi mustahkamlandi.

Hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik qilish instituti bosqichma-bosqich bekor qilinadi

Mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyatining bo'linishi mamlakatda butun davlat boshqaruvi tizimini chuqur isloh qilish uchun asos bo'ladi. Shu asosda, mahalliy Kengash raisi bilan hokim lavozimini bir-biridan ajratish amalga oshirildi.

Barcha masalalar yechimi chinakam xalq ovozi bo'lgan mahalla darajasiga tushiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaning eng muhim tamoyillaridan biri – inson qadri, sha'ni va erkinligini oliy qadriyat sifatida belgilashdir. Unda shaxsiy daxlsizlik, fikr, so'z va vijdon erkinligi, mulk huquqi, mehnat va ta'lim olish kabi asosiy huquqlar aniq belgilangan. Bu tizim adolat, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi

kurashning huquqiy asosidir. Konstitutsiyada xususiy mulkning daxlsizligi, tadbirkorlik erkinligi va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining ustuvorligi belgilangan. Bu esa mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishning huquqiy negizini yaratadi. Konstitutsiya davlatning aholining ijtimoiy himoyasi, sog'liqni saqlash, ta'lim, oila va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi majburiyatlarini belgilaydi.

Konstitutsiyada belgilangan tamoyillar uzoq muddatli strategik rivojlanish uchun mustahkam huquqiy baza bo'lib xizmat qiladi, bunda har qanday qonun avvalo uni bilish va hurmat qilish, unga so'zsiz rioya etish orqali tom ma'noda qonuniylik hamda amaliylik kasb etadi. Konstitutsiyaning normalarini ham aynan ana shu ongli itoatkorlik harakatga keltiradi. Bu, avvalambor, mansabdor shaxslarning ham, fuqarolarning ham Konstitutsiyani bilishlarini qat'iy talab etadi. Yuksak huquqiy madaniyatsiz Konstitutsiyaning boy salohiyatini to'liq amalga oshirish mumkin emas. Ammo, Konstitutsiyani bilishning o'zi bilan ham kifoyalanib bo'lmaydi. Shu bois jamiyatda konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 14.02.2017-yildagi F-4849-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son..
5. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni, 01.05.2023-yildagi O'RQ-837-son